

**ZAMONAVIY JAMIYATDA ILMIY-
TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHNING UMUMIY FAROVONLIK
UCHUN AHAMIYATI**

(Oliy ta’lim muassasalari talabalarini hayoti misolida)

*To‘rayev Azamat Maqsudovich, Chirchik davlat pedagogika
universiteti tadqiqotchisi*

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING
SCIENTIFIC AND RESEARCH COMPETENCE IN
MODERN SOCIETY FOR GENERAL WELL-
BEING**

(On the example of the life of students of higher
educational institutions)

*Turayev Azamat Maqsudovich, Researcher of Chirchik State
Pedagogical University*

**ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ ДЛЯ
ВСЕОБЩЕГО ПРОЦВЕТАНИЯ**

(На примере жизни студентов высших учебных
заведений)

*Тураев Азамат Максудович, научный сотрудник
Чирчикского государственного педагогического
университета*

Annotatsiya: Hozirgi o‘zgarayotgan dunyoni bilish, hamda uni o‘zgartirish uchun dunyoni bilish usulini bilish lozim. Ushbu tadqiqot ishimizda zamonaviy jamiyatda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashning umumiy farovonlik uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, fan, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqotchilik, intellektual rivojlantirish, tadqiqot kompetensiyasi, ijtimoiy muvaffaqiyat.

Abstract: To know the current changing world, and to change it, one must know the way of knowing the world. In this research work, the importance of improving the quality of professional training based on the development of research competence in modern society for the general well-being was analyzed.

Keywords: globalization, science, production, research, intellectual development, research competence, social success.

Аннотация: Нужно знать современный меняющийся мир и знать, как познать мир, чтобы изменить его. В данном исследовании проанализирована важность повышения качества профессиональной подготовки для общего благополучия современного общества на основе развития исследовательской компетентности.

Ключевые слова: глобализация, наука, производство, исследования, интеллектуальное развитие, исследовательская компетентность, социальный успех.



[https://orcid.org/0009-0007-](https://orcid.org/0009-0007-2726-3811)

2726-3811

e-mail:

torayevazamat997@gmail.com

KIRISH. Bugungi jadallik bilan kechayotgan ilm-fan ixtirolari insonlarning hayoti va madaniyatini o‘zgartirmoqda. A.F.Chalmersning ta’kidlashicha dunyoni bugungi kunda uchta harakatlantiruvchi kuch boshqaradi: iqtisod, siyosat va fan. Bunda siyosat va iqtisod eng yaqin maqsadlarga intiladi, fan esa uzoq maqsadlarni ko‘zlovchi sohadir. Fanning rivojlanishi turli sohalarga tayyorlanayotgan bo‘lajak kadrlarning o‘z sohasida malakali bo‘lishi bilan bog‘liq. Hozirgi o‘zgarayotgan dunyoni bilish, hamda uni o‘zgartirish uchun dunyoni bilish usulini bilishi lozim. Ilmiy bilish bugungi kunda har bir inson uchun zarurdir. Zamonaviy jamiyatda bilimlarning o‘zini egallash yetarli emas, balki yangilarini yaratish va dunyoni o‘zgartirish qobiliyatiga ega bo‘lish, ayniqsa o‘sib kelayotgan yoshlarning tadqiqotchilik malakalari, yangi xizmat va mahsulotlarni yarata olish qobiliyatlarining mavjud bo‘lishi muhim sanaladi. Shu sababli har bir jamiyat bugungi kunda yangi ta’lim maqsadlarini o‘z oldiga qo‘yayotgani bejiz emas. Chunki globallashuv ta’sirida yuzaga kelayotgan innovatsiyalarni nazorat qila oladigan va raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida harakat qilishga tayyor kadrlargina omon qola oladi. Malakali, zamonaviy kadr esa o‘z navbatida tadqiqotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim. Talabalarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish ushbu maqsadga xizmat qiladi va bu mutaxassislar tayyorlashning majburiy, hamda ajralmas qismidir. Talabalarda ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat OTMning maqsadi, balki ularni hissiy, intellektual rivojlanishiga uchun ehtiyoj hamdir. Shu jihatdan talabalar tadqiqotchilik faoliyatini rivojlanishiga dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MUHOKAMA. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati nazariy va amaliy mashg‘ulotlar davomida egallagan ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi bilan belgilanadi. Talaba qaysi kasb yoki soha mutaxassis bo‘lishidan qat’i nazar ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur. Pedagogika universitetlarida bo‘lg‘usi o‘qituvchilar o‘quv vazifalarini tahlil qilish, o‘z harakatlarini oldindan rejalashtirish, vaziyatni oldindan prognoz

qilishda ham tadqiqot usullari haqida tushunchalarga ega bo‘lishi lozim. Eng asosiy masalalardan biri o‘quv jarayonida talabalarning ilmiy tadqiqot qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlanish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar malakasi ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarimiz davomida amalga oshirilgan so‘rovnoma natijalari shuni tasdiqladiki, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik bilan shug‘ullanishlariga OTM da qulay sharoit mavjud, ammo natijalar ijobjiy emas. Sababi aksariyat talabalar tadqiqotchilik faoliyatiga vaqt yo‘qligini, darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarida moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida mehnat faoliyati bilan band ekanligi bilan izohlashgan. Talabalarning fan va ta’limni moliyalashtirishga imkoniyati yetarli darajada emasligi tasdiqlandi. Demak, OTMlarda ilmiy-tadqiqotchilik bilan shug‘ullanishga resurslar, texnik vositalar yetarli darajada. Ammo 30% talabagina ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqishini ta’kidlagan. Talabalarning 60%i umuman qiziqmaydi. Qolgan talabalar fanlar bo‘yicha berilgan mustaqil ta’limni bajarish jarayonida zarurligi sababli ozroq qiziqish bildirishdi. Bu jahhada bir qancha omillarni talabalar ilmiy tadqiqot kompetensiyasining rivojlanishiga to‘siq sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkun:

- talabalar ilmiy birlashmasining faol emasligi;
- talabalarning zaif motivatsiyasi;
- tashabbuskorlikning pastligi va hokazo. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etishida ko‘plab omillar ta’sir qiladi: o‘quv jarayonini tashkil etish strategiyasi va usullari, talabalarning motivatsiyasi; o‘qituvchilarining faol pozitsiyasi va talabalar bilan hamkorlik qilish istagi; moddiy baza va ilmiy tadqiqotni tashkil etish uchun shart-sharoitlar[1]. Bo‘lg‘usi kadrler ilmiy tadqiqotning konseptual va terminologik apparatini bilish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish tamoyillari, algoritmini bilish, yangi ilmiy axborotlarni olish va to‘plash usullarini o‘zlashtirishni taqozo qiladi[2]. Tadqiqotimiz davomida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlanishda talabalar o‘rtasida raqobatchilik muhiti yaratilishi lozim; Oliy ta’lim tizimidagi eng faol tadqiqotchi talabalar reytingini yuritishda elektron platforma yaratish; “Eng yaxshi

“yil loyihasi” ko‘rik tanlovlarni o‘tkazish va talabalarning ijodkorlik qirralarini yanada rivojlantirish bilan birga ularga moliyaviy holatini yaxshilashda turli sovrinlar e’lon qilish va hokazo.**XULOSA**. Bugungi shiddatkor davrda ilm-fanning tezkorlik bilan rivojlanishi oliy ta’lim muassasasi kadrlar sifatini yanada yaxshilashni taqozo qilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lg‘usi kadrlarning ilmiytadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish holatini qoniqarli holatda deya olmaymiz. Demak ta’lim jarayoni rivojlangan davlatlar tajribasining samarador tendensiylarini tahlil qilish asosida mahalliy imkoniyatlarimizdan kelib chiqib kadrlar sifatini yaxshilashda ilmiytadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim. Zero har bir sohaning rivoji innovatsion mahsulot va xizmat yaratishga qodir bo‘lgan kadrga bog‘liq. Bu jarayonda asosiy mas’uliyat shubhasiz, oliy ta’lim muassasalarini zimmasiga tushadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Акбаева М.Д. Понятие “исследовательская компетентность” в

педагогической теории // Педагогический журнал. 2016. Том 6. № 6А. С. 268-282.

2. Ковешникова Н.А. Педагогические условия формирования научно - исследовательской компетентности будущих бакалавров дизайна. с.183-185.file:///c:/users/hp-pc/downloads/pedagogicheskie-usloviya-formirovaniya-nauchno-issledovatelskoy-kompetentnosti-buduschih-bakalavrov-dizayna.pdf.

3. Koshanova Nilufar Maxsudovna., To‘rayev Azamat Maqsudovich Globallahuv sharoitida talabalar bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilishning pedagogik shartlari//Tamaddun nuri. 2024 9-son. B.277-280.

4. Nilufar Maxsudovna Koshanova. Zamonaviy jamiyatda intellektual madaniyatning rivojlanishi: muammo va imkoniyatlar//Ta’limda innovatsion tadqiqotlar. 2023/12. B.208-212.

5. N.M. Koshanova. Milliy tarbiyani rivojlantirish – globallahuv sharoitidagi zaruriyat sifatida//Academic research in educational sciences, 2023.-P.58-65.

